

BANK OPERATSIYALARINING MOHIYATI

Ilmiy rahbar: **Juliboy o'g'li Oybek**
SamISI, "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Saidqulov A.
SamISI, Bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Bank operatsiyalari – banklar amalga oshiradigan operatsiyalar: joriy yoki boshqa hisob varaqqa pul qabul qilish, foizi bilan yoki foizsiz kreditlar berish, birja topshiriqlarini bajarish, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar sotib olish, mijozlarning topshiriqlarini bajarish, tovarlar yoki tovar hujjatlari garovi hisobiga ssudalar berish, shuningdek boshqa har qanday pulli va naqd pulsiz hisobkitoblar bo'yicha operatsiyalar kiradi. Asosan passiv (kreditlash uchun resurslar hosil qilish) va aktiv (foyda olish maqsadlarida bu resurslarni ishlatish) turlarga bo'linadi.

Kalit so'zlar: Bank, operatsiyalar, aktiv, passiv, resurs, banklar faoliyati, markaziy bank.

АННОТАЦИЯ

Банковские операции-операции, осуществляемые банками: прием денег на расчетный или иной счет, выдача кредитов с процентами или без, выполнение биржевых поручений, покупка ценных бумаг, акций, выполнение поручений клиентов, выдача кредитов под залог товаров или товарных документов, а также операции по любым другим денежным и безналичным счетам. В основном подразделяется на пассивный (создание ресурсов для кредитования) и активный (использование этих ресурсов с целью получения прибыли).

Ключевые слова: Банк, операции, актив, обязательство, ресурс, банковская деятельность, центральный банк.

ANNOTATION

Banking operations are operations carried out by banks: accepting money to a settlement or other account, issuing loans with or without interest, executing exchange orders, buying securities, shares, executing customer orders, issuing loans secured by goods or commodity documents, as well as transactions on any other monetary and non-cash accounts. It is mainly divided into passive (creation of resources for lending) and active (use of these resources for profit).

Key words: *Bank, operations, asset, liability, resource, banking activity, central bank.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qabul qilgan „Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, banklar amalga oshiradigan operatsiyalar ro‘yxati bir qator yangi bank operatsiyalari bilan to‘ldirildi.

Xususan, qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish, elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash kabi operatsiyalar shular jumlasidandir.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
- to‘lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
- kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb etilgan mablag‘lar hisobidan berish;
- chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
- jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha mol-mulknini ishonchli boshqarish;
- inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;

- uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
- uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
- affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;
- qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
- hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;
- lizing berish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzar berish;
- moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;
- aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;
- elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;
- bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish.
- Banklar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.
- Banklar bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganida, passivlar aktivlardan ko'payib ketganida;

litsenziya berishga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlanganda;
bank o'z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmaganida;

hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;
qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;

litsenziya berilgan paytdan e'tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;

monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda.

Banklar o'z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg'armalariga doir ma'lumotlar sir saqlanishiga kafolat beradi. Bankning barcha xizmatchilari bank, uning mijozlari va vakillarining bank operatsiyalari, hisobvaraqlari va jamg'armalariga doir ma'lumotlarni sir saqlashlari shart.

Yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o'ziga, prokuror, sudlarga, jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotnomalar mijozlarning o'ziga va ularning qonuniy vakillariga; mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag'lari hamda boshqa qimmatbaho narsalar xatlanishi, ularga undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo'lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo'yicha sudlar, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Hisobvaraqlar va omonatning egalari vafot etganda ushbu hisobvaraqlar hamda omonatga doir ma'lumotnomalar mazkur hisobvaraq yoki omonat egasi bankka topshirgan vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning jamg'armalariga doir meros ishlarini yuritayotgan davlat notarial idoralariga, chet el fuqarolarining hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar esa — chet el konsullik muassasalariga beriladi.

Markaziy bankning tijorat banklaridan depozitlarga asosiy stavka darajasida mablag'larni jalb qilish operatsiyalari. Ushbu auksionlar 2022 yilning mart oyidan

boshlab “to‘liq qoplanadigan o‘zgaras foiz stavkali” operatsiyalar (fixed rate – full allotment) ko‘rinishida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq kelgan va xalqaro amaliyotda foydalaniladigan chet el valyutasidagi har qanday operatsiyalarni respublikada va chet ellarda amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, valyuta va o‘zga manfaatlarini ta‘minlashga ko‘maklashgan holda hukumatlararo savdo, to‘lov bitimlarining (shartnomalarning, mo‘ljal bayonlarining) valyuta-moliya shartlarini ishlab chiqishda qatnashish;

hukumatlararo bitimlarga, (shartnomalarga, mo‘ljal bayonlariga) muvofiq ravishda “rubl” zonasiga kiruvchi davlatlar va boshqa davlatlarning Markaziy hamda milliy banklari bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida shartnomalar tuzish;

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

bankni ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar topshirilmaganligi;

ta‘sis hujjatlarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;

bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi;

muassislarning moliyaviy mablag‘larining manbalari e‘lon qilinmaganligi;

bankni ro‘yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to‘lanmaganligi;

bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

Xulosa. Bank operatsiyalari- Banklarning o‘z maqsadlariga erishish va harakat qilishi vositalari. Ular aktiv va passiv operatsiyalarga bo‘linadi, shuningdek, banklar har xil turdagi xizmadarni ham ko‘rsatadi (faktoring, lizing, konsalting, trust va h. K).

Bankning passivlari- Yuridik va jismoniy shaxslarning bosh pul mablag‘lari, o‘z mablag‘lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan, bank xarajatlari bilan bog‘liq operatsiyalar majmuyi.

Bankning aktivlari-banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular, asosan, bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi..

Aktiv operatsiyalar real hayotimizdagi bank kreditlari olishdagi katta ahamiyati bor. Kreditlar esa bizni turli bizneslarni boshlashdagi asos bo'lib xizmat qiladi.

Bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchiga rad etish sabablari hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, takroran ko'rib chiqish uchun ariza berishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi. Bunda bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi arizani takroran ko'rib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n besh kundan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan ariza yangidan berilgan hisoblanadi.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi arizani takroran ko'rib chiqishda bankni ro'yxatga olishni va litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha ro'yxatga olishni va litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019–yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi;
2. 2022-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2344- sonli Qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi;
5. Karimova A. M. SOURCES OF FINANCIAL AND CREDIT SUPPORT AND FACTORS HINDERING THE DEVELOPMENT OF TOURISM ENTERPRISES //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – T. 10. – №. 7.
6. Zuhur N. et al. TRANSITION OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN TO A CREDIT-MODULAR SYSTEM //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 123-127.
7. Tursunov, F. M. (2023). TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(30), 75–81.
8. Жулибой угли, О., & Убайдуллаева, Л. А. кизи . (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКИНГНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. SCHOLAR, 1(29), 66–73.